XALQ DEPUTATLARI JIZZAX VILOYATII KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 15-may VII-29-144-3-0-K/26 Jizzax viloyati

Viloyatda qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish va xizmat ko‘rsatish sohasida ta’riflarni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi 2002-yil 4-,5-son, 72-modda), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi PQ-4845-sonli va Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi 95-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi PF-5-son Farmoni ijrosini ta’minlash hamda Jizzax viloyati hokimligining 2026-yil 10-apreldagi 02-736-sonli va Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligining Jizzax viloyati boshqarmasining 2026-yil 9-apreldagi 1-01/1001-sonli murojaat xatlarini hamda Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2026-yil 26-martdagi 01-01-05-67-sonli xulosa xatini inobatga olib, viloyat hududida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish va xizmat ko‘rsatish sohasidagi ishlarni samarali tashkil qilish, hududlarning ekologik va sanitariya holatini yanada yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. Viloyat hokimligining 2026-yil 10-apreldagi 02-736-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jizzax viloyatining shahar va tumanlarida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish va xizmatlar ko‘rsatish sohasida majburiy to‘lovlar ta’riflari miqdori ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligining Jizzax viloyati boshqarmasi (Sh.Usmanov) hamda viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (J.Latipov), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi boshlig‘i (B.Soatov)larga:

- qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish va xizmat ko‘rsatish sohasida majburiy to‘lovlar uchun yangi ta’riflar belgilanganligini aholi va xo‘jalik yurituvchi subektlar e’tiboriga yetkazish;

- har yili aholini xatlovdan o‘tkazish yil boshining birinchi choragida to‘liq amalga oshirilib, xatlov hisobotlari va dalolatnomalari Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligining Jizzax viloyati boshqarmasiga taqdim etish, bunda Sanitar tozalash korxonasi, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi xodimlari, Mahalla yettiligidan a’zolar ishtirok etishlarini ta’minlash hamda ma’lumotlarning to‘liqligini mahalla fuqarolar yig‘ini raislari tomonidan ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

4. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (B.Axmedov), viloyat G‘aznachilik boshqarmasi (M.Istamov) budjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlarning xarajatlar smetasiga qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni tashib ketish xizmatlari bo‘yicha belgilangan me’yorlar hamda mazkur ta’riflar asosida zarur mablag‘lar rejalashtirilishini ko‘zda tutsinlar.

5. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (A.Binoqulov), O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Jizzax viloyat teleradiokanali Davlat muassasasi direktori E.Shermonov, “Jizzax haqiqati”-“Джизакская правда” gazetasi tahririyati (B.Nazarov)ga mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qaror ijrosini o‘z vaqtida ta’minlash vazifasi viloyat hokimi o‘rinbosari Sh.Djuraev zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2024-yil 15-fevraldagi VI-51-38-3-0-K/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi E.Xolmatov hamda Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Rahmonqulov zimmalariga yuklansin.

9. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi raisi

UZAKOV BAYRAMBEK UZAKOVICH

Xalq deputatlari Jizzax viloyati
Kengashining
2026-yil 15-maydagi
VII-29-144-3-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish va xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi majburiy to‘lovlar bo‘yicha yangi TARIFLAR

T/r	Xizmatlar turi nomi va qisqacha texnik tavsifi	Tarif belgisi, kodi	O‘lchov birligi	Narx (tarif) miqdori (so‘mda, QQS siz)
1	Qattiq maishiy chiqindini olib chiqib ketganlik uchun jismoniy shaxslardan - 1 kishidan undiriladigan oylik to‘lov tarifi	**T j**	**1 kishi**	**8 500**
2	Qattiq maishiy chiqindini olib chiqib ketganlik uchun yuridik shaxslardan undiriladigan to‘lov tarifi	**T u**	**1 tonna**	**140 000**
3	Qattiq maishiy chiqindini yuridik va jismoniy shaxslardan olib chiqib ketganlik hamda uni chiqindilarni qayta yuklash stansiyasi, chiqindi poligonlari, chiqindilarni yoqish zavodlari, ekosanoat zonalarida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subektlariga (keyingi o‘rinlarda — qattiq maishiy chiqindilarni qabul qilish punktlari) yetkazib berganlik uchun sanitar tozalash korxonalariga to‘lov tarifi	**T tarif**	**1 tonna**	**304 000**
4	Qattiq maishiy chiqindini qabul qilib olganlik, rekultivatsiya qilganlik va ko‘mganlik uchun chiqindi poligonlariga to‘lov tarifi	**T p**	**1 tonna**	**34 800**